

“MALLA SAVDOGAR” DOSTONI VARIANTIDA MAQOLLARNI QO‘LLANILISHI

Achilova Zuxra Qurbonovna

Qarshi davlat universiteti Yangi o‘zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasii
mustaqil tadqiqotchisi.

ORCID: 0009-0004-3307-111X, e-mail: achilovaf@gmail.com,

tel.: (+99897) 311-87-18, (+99477) 340-80-94

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20963521>

Annotatsiya. Maqolada baxshi Jo‘ra Eshmirza o‘g‘li kuylagan “Malla savdogar” dostoni tarkibida qo‘llangan xalq maqollarining badiiy-estetik va ijtimoiy-falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Dostondagi “Qor yog‘di – iz bosildi”, “Bosh yorilsa – qalpoq tagida”, “Qo‘l sinsa – yeng ichida”, “Sulton suyagini xo‘rlamas, bedov ot chopib terlamas” kabi maqollar paremiologik birlik sifatida o‘rganilib, ularning mazmunida aks etgan vaqt va o‘zgarish, jamoaviy birdamlik, ijtimoiy mas‘uliyat, ichki barqarorlik hamda qadr-qimmat konseptlari ilmiy jihatdan yoritiladi. Tadqiqot natijasida maqollarning doston syujeti va obrazlar tizimidagi funksiyasi, xalq dunyoqarashi hamda milliy tafakkurni ifodalashdagi o‘rni aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: maqol, paremiologiya, folklor, xalq og‘zaki ijodi, doston, “Malla savdogar”, badiiy talqin, xalq tafakkuri, ijtimoiy-falsafiy mazmun, axloqiy qadriyatlar, milliy dunyoqarash, paremiologik birlik.

Аннотация. В статье анализируется художественно-эстетическая и социально-философская сущность народных пословиц, использованных в эпосе «Малла савдогар», исполняемом бaxши Джурой Эшмирза оглы. Пословицы «Выпал снег — следы исчезли», «Если голова разбита — это остаётся под тубетейкой», «Если рука сломана — она остаётся в рукаве», «Султан не унижает своё происхождение, а породистый конь не скачет, не вспотев» рассматриваются как паремиологические единицы. В научном аспекте раскрываются концепты времени и изменений, коллективной солидарности, социальной ответственности, внутренней устойчивости и человеческого достоинства, отражённые в их содержании. В результате исследования определяются функции пословиц в сюжетной структуре и системе образов эпоса, а также их роль в выражении народного мировоззрения и национального мышления.

Ключевые слова: пословица, паремиология, фольклор, устное народное творчество, эпос, «Малла савдогар», художественная интерпретация, народное мышление, социально-философское содержание, нравственные ценности, национальное мировоззрение, паремиологическая единица.

Abstract. This article analyzes the artistic-aesthetic and socio-philosophical significance of folk proverbs used in the epic “*Malla Savdogar*” performed by the baxshi Jora Eshmirza ogli. Proverbs such as “When snow falls, tracks disappear,” “If the head is wounded, it remains under the cap,” “If the hand is broken, it stays inside the sleeve,” and “A sultan does not disgrace his lineage, nor does a thoroughbred horse run without sweating” are examined as paremiological units. The study elucidates the concepts of time and change, collective solidarity, social responsibility, internal stability, and human dignity reflected in their semantic content. The research identifies the functions of these proverbs within the plot structure and character system of the epic, as well as their role in expressing the folk worldview and the national mode of thinking.

Keywords: proverb, paremiology, folklore, oral folk literature, epic, *Malla Savdogar*, artistic interpretation, folk cognition, socio-philosophical content, moral values, national worldview, paremiological unit.

Kirish. O'zbek xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va ommaviy janrlaridan biri bo'lgan maqollar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, axloqiy qarashlari, ijtimoiy munosabatlari hamda falsafiy tafakkurini mujassamlashtirgan paremiologik birliklar hisoblanadi. Ular ixcham shaklda chuqur mazmuni ifodalashi, badiiy obrazlilik va umumlashma xususiyatiga egaligi bilan folklor tizimida alohida o'rin tutadi.

Xalq maqollari nafaqat tarbiyaviy va didaktik vazifani bajaradi, balki millatning tarixiy xotirasi, ma'naviy qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim madaniy fenomen sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, epik asarlar tarkibida qo'llangan maqollar qahramonlar xarakterini ochish, voqealar rivojini asoslash hamda asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini kuchaytirishda muhim vosita vazifasini bajaradi.

Baxshi Jo'ra Eshmirza o'g'li kuylagan "Malla savdogar" dostoni tarkibida uchraydigan maqollar xalqning ijtimoiy-falsafiy qarashlari, axloqiy me'yorlari va hayotiy tajribasini badiiy talqin etishi bilan e'tiborlidir. Mazkur maqollarni paremiologik, falsafiy va madaniy-antropologik jihatdan tahlil qilish orqali o'zbek xalq tafakkurining muhim konseptlari hamda dostonida aks etgan milliy dunyoqarash xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Shu bois ushbu tadqiqotda "Malla savdogar" dostoni tarkibida qo'llangan maqollarning mazmun-mohiyati, badiiy funksiyasi va xalqona falsafiy konsepsiyalarni ifodalashdagi o'rni ilmiy tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Maqol — xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli gap. Muayyan ritmik shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashtirgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. **[1.340-b.]**

Maqol deb xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so'zlarga aytiladi. Maqol o'zbek tilida maqol, tojiklarda zarbulmasal, ruslarda poslovitsa, arablarda (jonli so'zlashuvda) naql, turklarda ata so'zi atamasi bilan yuritiladi. Maqol atamsi arabcha [ق و ل] – qavlun – gapirmoq, aytmog so'zidan olingan.

Maqollarda so'z qimmatini alohida yorqin ifodalanadi. Chunki maqollardagi so'zlarni boshqasi bilan almashtirish, biron so'z qo'shish mumkin emas. Ular milliy til tarkibida qoliplashgan holda namoyon bo'ladi. Bu janr dunyodagi hamma xalqlar og'zaki ijodida bor bo'lib, hajm, shakl, yaratilishi maqsadiga ko'ra mushtarak hisoblanadi. Hatto nomlanishida ham yaqinlik aniq seziladi. Jumladan, arablarda "qavlun" – gap, so'z ma'nosini ifodalasa, tojiklarning "zarbulmasal" atamalarida misol keltirish, ruslar "poslovitsa" sida so'zlar bilan fikrni ifodalash, turklardagi "ota so'zi" da esa ajdodlar fikrini eslash ma'nosi yetakchi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ham "sav" atamasi otalar so'zini eslash tarzida keltirilgan. Xullas, maqol atamasi umumiy mazmun jihatdan "so'z" tushunchasi bilan bog'lanadi. **[2.internet manmba]**

Maqol ba'zan masal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so'z, tanbeh, mashoyihlar so'zi, hikmatli maqol, donishmandlar so'zi, otalar so'zi kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Maqollarning

ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati g'oyat katta. Matalda narsa tasviri, uning xarakteristikasi beriladi, maqolda esa to'la tugallangan fikr-xulosa ifodalanadi. [1.340-b.]

Maqol xalq hayotiy tajribalari xulosasini ifodalovchi hikmatli fikrlar majmuasidir. Maqol arabcha qavlun - gapirmoq, aytmoq so'zidan olingan bo'lib, aytib yuriladigan ifoda va iboralarga nisbatan qo'llaniladi. Maqol og'zaki ijodimizda qo'llaniladigan eng kichik janrlardan biri hisoblanadi. Folklorshunoslikda kichik janrlarni paremiya deb atash ham qabul qilingan. Maqollar hajm jihatdan qisqa bo'lsada, ularda fikr va mazmun keng qamrovli bo'ladi. Dunyoda o'z maqollariga ega bo'lmagan xalqning o'zi yuq. Chunki har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida avlodlarga meros qilib qoldiradilar.

Xalq maqollari tarixi o'nlab asrlar bilan o'lchanadi. O'rxun - Enasoy bitiklarida "Oriq va semiz (birov) tezagidan bilsa, birov oriq va semiz buqani ajrata olmaydi". "Yupqa qalin bo'lsa tor - mor qiladigan bahodir emish, Ingichka yo'g'on bo'lsa, uzadigan bahodir emish" kabi maqollarni eslatuvchi parchalarni o'qiymiz.

Maqol janrining o'rganilish tarixi Mahmud Koshg'ariyga borib taqaladi. O'zining ("Devonu lug'ati turk" asarida 400 ga yaqin maqol va matallar o'rin olgan, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan maqollarning bir qanchasi hozir, ham o'zbek xalqi orasida turli variantlarda ishlatiladi. [3.109-b.]

Maqollarning janr xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1) maqollarning hajmi qisqa va cheklangan;
- 2) maqollar mazmunan serko'lamva chuqur ma'noni anglatadi;
- 3) xalq maqollar shaklan she'riy va nasriy bo'ladi, ammo nasriy maqollar ham she'riy misralarni eslatadi. Masalan: Ko'za kunda emas, kunida sinadi.
- 4) maqollarda hayotiy voqea-hodisa haqida qat'iy hukm ifodalanadi. Bu hukm musbat yoki manfiy aks etadi;
- 5) maqol shaxs hayotidagi xususiy vaziyatni xalq, omma hayot nuqtai nazardan umumlashtiradi;
- 6) maqol matni tilshunoslikda shaxsi umumlashgan gap hisoblanadi. [3.113-b.]

Baxshi Jo'ra Eshmirza o'g'li kuylagan "Malla savdogar" dostoni variantida ham xalq maqollari qo'llangan. Maqollar doston syujet niyoyasida kechadigan voqelar va timsollar diaolgida o'rinli qo'llangan.

Ahmadning Oybaland degan qizi bor edi. Go 'ro 'g 'li sultonning oyog 'iga bosh urib, otasining gunohini tilab keldi qulluq qilib. Shunda Go 'ro 'g 'li turib aytdi:

M - Ixtiyor menda emas, borib Avazdan so 'ra. Qiz Avazxonga kelib salom berdi.

Oybaland:

Men bandaman, sizga qilsam arzu dod,

Tanda jonim beshgina kun omonat.

Shirin tilli, labzi bolli, akajon,

Quloq soling ikki og 'iz arzim bor.

Mushtiparman, kecha-kunduz jilayman,

Arzim shudir, qabul qiling, akajon,

O 'lsin otam, gunohini tilayman.

Avaz:

Otim maydon ora jelmayman,

Egri yon olmosini belga chalmayman,

***Xotinimdan borib so‘ra, Oybaland,
Ixtiyori menda emas, bilmayman.***

Shu tarzda Jo‘zumko‘zga yuzlanadi, Jo‘zumko‘z esa oybalandni arzini tinglagach “Tebranib joyingdan turgin, Gulnorning qoshiga borgin” deydi.

Oybaland Gulnor qoshiga kelib arzi hol qiladi. **[4.374-b.]**

Shunda Gulnor joyidan turib, yoshining kattaligini hurmat qilib: – Xayr, opa, ixtiyor qilib menga kelgan bo‘lsang, aziz boshga ro‘mol chalib, jazirama cho‘lda, tog‘ma-tog‘da qaysi dushman qo‘liga o‘hu hasratda giriftor bo‘ldik. End biz ko‘rdik, bundan bu yoqqa hech kim ko‘rmasin, biz ko‘rgan azoblarni hech bir bandaga solmasin, “Qor yog‘di – iz bosildi”, “Bosh yorilsa – qalpoq tagida”, “Qo‘l sinsa – yeng ichida”. Bizdan bir oz davlat qaytdi, biz ham ko‘rdik taqdiridagi mehnatdi. “Sulton suyagini xo‘rlamas, bedov ot chopib terlamas”. U kuni bobomiz xo‘rlasa ham, biz bobomizni xo‘rlasmiz.. har kim qilsa, o‘ziga qilar.” **[4.376-b.]**

Dostonda qo‘llangan maqollar o‘zbek xalqining ko‘p asrlik ijtimoiy tajribasi, axloqiy qarashlari va hayotiy falsafasini mujassamlashtirgan paremiologik birliklar hisoblanadi. Ularning mazmunini ilmiy-adabiy uslubda, falsafiy, sotsiologik va madaniy-antropologik yondashuvlar asosida tahlil qilish xalq tafakkurining mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

1. “Qor yog‘di – iz bosildi” maqolining falsafiy mohiyati. Ushbu maqol inson faoliyati, voqea-hodisalar va ijtimoiy munosabatlarning vaqt o‘tishi bilan unutilishi yoki yangi voqealar ta‘sirida o‘z ahamiyatini yo‘qotishini ifodalaydi. Maqolning semantik markazida “qor” va “iz” obrazlari turadi. Qor yangi qatlam sifatida avvalgi izlarni yopib yuborganidek, hayotda ham yangi voqealar eski hodisalarning izini o‘chiradi.

Falsafiy nuqtai nazardan, mazkur maqol borliqning o‘zgaruvchanligi va vaqt omilining ustuvorligini aks ettiradi. Bu yerda hayotning dialektik rivojlanish qonuni namoyon bo‘ladi: har qanday hodisa vaqt o‘tishi bilan yangi hodisalar bilan almashinadi. Inson xotirasi va jamiyatning kollektiv ongida ham ayrim voqealar vaqt o‘tishi bilan o‘z dolzarbligini yo‘qotadi.

Sotsiologik jihatdan qaralganda, maqol ijtimoiy ziddiyatlar, mojarolar yoki xatolarning ham vaqt o‘tishi bilan yumshashi va unut bo‘lishi mumkinligini anglatadi. Shu sababli maqol insonni sabr-toqatli bo‘lishga, har qanday vaziyatga mutlaq emas, balki vaqt mezonini orqali baho berishga undaydi.

Maqolning asosiy g‘oyasi — vaqt ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi ko‘plab muammolarni tabiiy ravishda bartaraf etuvchi omil ekanligi haqidagi falsafiy qarashdir.

2. “Bosh yorilsa – qalpoq tagida” maqolining falsafiy va ijtimoiy tahlili. Mazkur maqol oilaviy, urug‘-aymoq yoki jamoa doirasidagi muammolarni oshkora qilmaslik, ularni ichki muhitda hal etish zarurligini ifodalaydi.

Maqolning obrazli asosida “bosh” va “qalpoq” o‘rtasidagi munosabat yotadi. Bosh insonning o‘zligini, qalpoq esa uning ijtimoiy himoya qobig‘ini anglatadi. Agar bosh yorilsa ham, u qalpoq ostida qoladi, ya‘ni ichki muammo tashqariga chiqarilmaydi.

Madaniy-antropologik nuqtai nazardan, bu maqol Sharq jamiyatlariga xos bo‘lgan kollektivism tamoyilining mahsulidir. Bunda jamoa obro‘si individual manfaatdan ustun qo‘yiladi. Oila yoki urug‘ning sha‘ni tashqi muhit oldida saqlanishi muhim deb hisoblanadi.

Biroq zamonaviy sotsiologik talqinda ushbu maqol ikki tomonlama baholanishi mumkin. Bir tomondan, u ichki birdamlikni mustahkamlaydi; ikkinchi tomondan esa, ayrim hollarda muammolarni yashirish yoki ularni konstruktiv hal qilishdan qochishga sabab bo‘lishi mumkin.

Maqolning konseptual mohiyati ijtimoiy birdamlik va jamoaviy mas'uliyat g'oyasiga asoslangan bo'lib, an'anaviy jamiyatlarda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi axloqiy me'yor sifatida shakllangan.

3. "Qo'l sinsa – yeng ichida" maqolining hayotiy falsafasi. Mazkur maqol mazmun jihatidan avvalgi maqolga yaqin bo'lsa-da, unda mas'uliyat va ichki muammolarni o'z kuchi bilan hal etish g'oyasi kuchliroq namoyon bo'ladi.

Qo'l insonning faoliyat va mehnat timsolidir. Qo'l singani holda ham uning yeng ichida qolishi muammo yoki kamchilikni oshkor etmaslik, avvalo uni ichki imkoniyatlar bilan bartaraf etishga intilish zarurligini anglatadi.

Falsafiy nuqtai nazardan, maqol inson va jamiyatning avtonomlik prinsipini ifodalaydi. Har qanday tizim, avvalo, o'z ichki resurslari orqali muammolarni hal etishga harakat qiladi. Bu holat tizimlar nazariyasida "ichki muvozanatni saqlash" tamoyiliga mos keladi.

Psixologik jihatdan esa maqol shaxsning bardoshlilik (rezilyentlik) xususiyatini ulug'laydi. Inson qiyinchiliklarni boshqalarga yuklamasdan, avvalo o'z imkoniyatlari bilan yengishga intilishi kerakligi ta'kidlanadi.

Maqol individual va jamoaviy mas'uliyat, ichki barqarorlik hamda muammolarni konstruktiv boshqarish tamoyillarini aks ettiruvchi xalqona falsafiy konsepsiyadir.

4. "Sulton suyagini xo'rlamas, bedov ot chopib terlamas" maqolining falsafiy talqini. Bu maqol ijtimoiy mavqe, tabiiy salohiyat va ichki qadr-qimmat masalalariga bag'ishlangan. Maqolda "sulton" va "bedov ot" obrazlari ideal tip sifatida qo'llanilgan.

"Sulton suyagini xo'rlamas" jumlasini insonning asl nasli, qadr-qimmat va ma'naviy salohiyati har qanday vaziyatda ham uni pastkashlikdan saqlashini anglatadi. Bu yerda biologik nasl emas, balki tarbiya, oriyat va ma'naviy kamolot nazarda tutiladi.

"Bedov ot chopib terlamas" qismi esa yuqori salohiyat va mukammal mahorat egasi bo'lgan shaxs uchun murakkab vazifalar ham nisbatan oson bajarilishini ifodalaydi. Bedov ot uchun chopish tabiiy hol bo'lgani kabi, bilimli va iste'dodli inson uchun murakkab faoliyat ham odatiy jarayon hisoblanadi.

Aksiologik (qadriyatlar) nuqtai nazaridan maqol insonning ichki sifatleri tashqi sharoitlardan ustun turishini ta'kidlaydi. Jamiyat taraqqiyotida ham aynan ma'naviy va intellektual salohiyat muvaffaqiyatning asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi.

Maqol insonning ichki qadr-qimmat, tabiiy iste'dodi va ma'naviy barkamolligi uning ijtimoiy muvaffaqiyatining fundamental omili ekanligi haqidagi xalq falsafasini ifodalaydi.

Umumiy nazariy xulosa. Tahlil qilingan maqollar o'zbek xalqining an'anaviy dunyoqarashida quyidagi fundamental falsafiy konseptlarni aks ettiradi:

1. **Vaqt va o'zgarish falsafasi** ("Qor yog'di – iz bosildi").
2. **Jamoaviy birdamlik va ijtimoiy mas'uliyat falsafasi** ("Bosh yorilsa – qalpoq tagida").
3. **Ichki barqarorlik va muammolarni mustaqil hal etish falsafasi** ("Qo'l sinsa – yeng ichida").
4. **Qadr-qimmat, salohiyat va ma'naviy ustunlik falsafasi** ("Sulton suyagini xo'rlamas, bedov ot chopib terlamas").

Paremiologik tahlil shuni ko'rsatadiki, mazkur maqollar xalqning tarixiy tajribasi asosida shakllangan ijtimoiy-falsafiy bilimlar tizimini ifodalaydi. Ular nafaqat maishiy pand-nasihat, balki shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi axloqiy-falsafiy konsepsiyalar sifatida ham ilmiy ahamiyatga ega.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maqollar o'zbek xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va barqaror paremiologik janrlaridan biri bo'lib, ularda xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, axloqiy qarashlari, ijtimoiy munosabatlari hamda falsafiy tafakkuri mujassamlashgan. "Malla savdogar" dostoni tarkibida qo'llangan maqollar asar g'oyaviy-badiiy mazmunini boyitish bilan birga, qahramonlar nutqining tabiiyligi va ta'sirchanligini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Dostondagi "Qor yog'di – iz bosildi", "Bosh yorilsa – qalpoq tagida", "Qo'l sinsa – yeng ichida", "Sulton suyagini xo'rlamas, bedov ot chopib terlamas" kabi maqollar xalqning vaqt va o'zgarish, jamoaviy birdamlik, ichki barqarorlik, qadr-qimmat va ma'naviy salohiyat haqidagi qarashlarini ifodalovchi muhim paremiologik birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Ularning semantik va funksional tahlili maqollarning nafaqat badiiy-estetik vosita, balki ijtimoiy-falsafiy bilimlarni avlodlardan avlodga yetkazuvchi madaniy xotira elementi ekanligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, dostonida qo'llangan maqollar xalq dunyoqarashi, milliy qadriyatlar va axloqiy-me'yoriy tasavvurlarni aks ettiruvchi muhim folklor unsuri sifatida asarning badiiy yaxlitligini ta'minlaydi hamda o'zbek paremiologiyasining nazariy va amaliy tadqiqotlari uchun muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Maqol. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. 340-b.
2. Maqol. Internet manba
3. Rustamova Shahlo Farhod qizi. "O'zbek xalq maqollari" . XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta'lim taraqqiyotida dolzarb muammolar, 109-b. 113-b.
4. Nurali turkumi. "Malla savdogar" dostoni, Jo'ra Eshmirza o'g'li variant. Toshkent. "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at" nashriyoti, 1989-yil. 374-b. 376-b.